

## TA'LIM MUASSASALARI AKKREDITATSIYASI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 21-sonli qarori ijrosi yuzasidan **2016 yil 4-choragida** Davlat test markazi huzuridagi Akkreditatsiya komissiyasining **3** ta yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Komissiya yig'ilishlarida nizom talablariga muvofiq attestatsiyadan ijobiy o'tgan **215** (ikki yuz o'n besh)ta maktabgacha, **359** (uch yuz ellik to'qqiz)ta umumiy o'rta, **1** (bir)ta oliy va **2** (ikki)ta kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalariga nisbatan "Akkreditatsiyalandi" degan qarorlar qabul qilindi.

### 2011-2015 yillar davomida attestatsiyaga jalb etilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari attestatsiyasi haqida ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi 21-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida 2011-2015 yillar davomida Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan 136 ta akademik litsey va 336 ta kasb-hunar kollejlarning attestatsiyasi hamda 42 ta akademik litsey va 42 ta kasb-hunar kollejlarning qayta attestatsiyasi o'tkazildi.

Ta'lim muassasalarining faoliyati "O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ning 21-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 14 iyulda 1836-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish mezonlari va texnologiyalari bo'yicha yo'riqnoma"ning 11-bandidagi ko'rsatkichlar asosida o'rganildi va tegishli xulosalar tayyorlandi.

Attestatsiya xulosasi "Yo'riqnoma"da belgilangan 5 ta asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha qabul qilinadi. Ya'ni, ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi asosiy hisoblangan ko'rsatkichlar:

- ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) tasdiqlangan davlat ta'lim standarti, tarmoq ta'lim standarti, namunaviy o'quv reja va dasturlar bilan to'liq ta'minlangan hamda ishchi o'quv reja va o'quv dasturlari namunaviy o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq bo'lganda;
- attestatsiya jarayonida o'tkazilgan nazorat ishlarida ijobiy baholarga o'zlashtirgan o'quvchilar salmog'i 55 foizdan kam bo'lmaganda;
- barcha o'qitilayotgan fanlar va amaliyotlar bo'yicha pedagog, muhandis-pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan to'liq ta'minlangan hamda ularning lavozim vazifalari malaka talablariga muvofiq bo'lganda;
- har bir fandan o'qitish tiliga mos kamida bitta nomda darslik yoki o'quv qo'llanma (darslik va o'quv qo'llanma yaratilmagan fandan esa ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan tavsiya etilgan ma'ruzalar to'plami) axborot-resurs markazi (kutubxona)da mavjud bo'lganda;
- umumta'lim, chuqurlashtirilgan va mutaxassislik fanlaridan ishchi o'quv dasturda belgilangan laboratoriya ishlarini bajarish uchun kerakli jihozlar bilan ta'minlangan hamda rejalashtirilgan laboratoriya ishlari bajarilganda ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim muassasasi "Attestatsiyadan o'tdi" deb hisoblandi.

Davlat test markazida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Akkreditatsiya komissiyasining qaroriga muvofiq "attestatsiyadan o'tdi" deb e'tirof etilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari "Akkreditatsiyalandi" va Davlat test markazining tegishli buyrug'iga asosan, ularga tasdiqlangan namunadagi Davlat akkreditatsiyasi haqida sertifikatlar beriladi.

Attestatsiyaga jalb etilgan ta'lim muassasalari to'g'risida ma'lumot (yillar kesmida)

Viloyatlar kesmida 2011-2015 yillar davomida attestatsiyaga jalb etilgan ta'lim muassasalari soni

2011-2015 yillar davomida Attestatsiyaga jalb etilgan ta'lim muassasalari soni

№	Hududlar nomi	Viloyatlar kesmida 2011-2015 yillar davomida attestatsiyaga jalb etilgan ta'lim muassasalari soni														2011-2015 yillar davomida Attestatsiyaga jalb etilgan ta'lim muassasalari soni		
		2011 yil (akademik litsey)	2011 yil	2012 yil (pedagogika)	2012 yil (tibbiyot)	2012 yil	2013 yil (AL qayta)	2013 yil (AL)	2013 yil (iqtisod)	2013 yil	2014 yil (pedagogika qayta)	2014 yil (tibbiyot qayta)	2014 yil	2015 yil (yengil sanoat, bank-moliya. Pedagog-sport-iqtisod))	2015 yil (Avto-transport)	2015 yil holatga Birinchi marotaba attestatsiyaga jalb etildi	2015 yil holatiga Qayta attestatsiyaga jalb etildi	2015 yil
		Attestatsiyaga jalb etildi	Jami	Attestatsiyaga jalb etildi	Attestatsiyaga jalb etildi	Jami	Attestatsiyaga jalb etildi	Attestatsiyaga jalb etildi	Attestatsiyaga jalb etildi	Jami	Attestatsiyaga jalb etildi	Attestatsiyaga jalb etildi	Jami	Attestatsiyaga jalb etildi	Attestatsiyaga jalb etildi	Attestatsiyaga jalb etildi	Attestatsiyaga jalb etildi	Jami
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	7	7	6	6	12	3	2	3	8	0	2	2	3	4	31	5	36
2	Andijon viloyati	11	11	4	7	11	7	1	10	18	2	1	3	7	7	47	10	57
3	Buxoro viloyati	5	5	6	4	10	3	1	8	12	4	2	6	5	1	30	9	39
4	Jizax viloyati	3	3	3	4	7	0	1	6	7	0	0	0	1	1	19	0	19
5	Qashqadaryo viloyati	7	7	3	3	6	3	0	11	14	0	0	0	5	5	34	3	37
6	Navoiy viloyati	4	4	1	3	4	2	0	3	5	1	1	2	3	0	14	4	18
7	Namangan viloyati	8	8	11	6	17	2	3	7	12	6	2	8	3	0	38	10	48
8	Samarqand	14	14	9	9	18	7	0	4	11	5	2	7	7	10	53	14	67

	viloyati																	
9	Surxondaryo viloyati	2	2	7	4	11	0	3	9	12	3	0	3	5	1	31	3	34
10	Sirdaryo viloyati	3	3	3	3	6	0	1	1	2	1	0	1	2	1	14	1	15
11	Toshkent viloyati	4	4	5	6	11	3	2	0	5	2	1	3	3	0	20	6	26
12	Farg'ona viloyati	9	9	7	8	15	5	2	10	17	2	1	3	8	10	54	8	62
13	Xorazm viloyati	4	4	2	2	4	1	1	6	8	1	0	1	5	2	22	2	24
14	Toshkent shahri	35	35	3	8	11	6	3	1	10	0	3	3	8	7	65	9	74
	Jami	116	116	70	73	143	42	20	79	141	27	15	42	65	49	472	84	556

2011-2015 yillar davomida attestatsiyaga jalb etilgan ta'lim muassasalari soni (viloyatlar kesimoda)

